

O'ZBEKISTONNING MILLIY QONUNCHILIGIDA OILA INSTITUTINING MUHOFAZA QILINISHINING HUQUQIY ASOSLARI

Xojiakbar Xusanovich Baxramov

O'zbekiston Respublikasi IIV Malaka oshirish instituti dotsenti

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonning milliy qonunchiligida oila institutini muhofaza qilishning huquqiy asoslari, huquqiy tartibga solinishi va xususiyatlari yoritilgan.

Tayanch so'zlar: oila, oila instituti, milliy qonunchilik, huquqbuzarlik, yuridik javobgarlik.

PRAVОВЫЕ ОСНОВЫ ЗАЩИТЫ ИНСТИТУТА СЕМЬИ В НАЦИОНАЛЬНОМ ЗАКОНОДАТЕЛСТВЕ УЗБЕКИСТАНА

Annotatsiya. В статье рассматриваются правовые основы, правовое регулирование и особенности защиты института семьи в национальном законодательстве Узбекистана.

Ключевые слова: семья, институт семьи, национальное законодательство, правонарушение, юридическая ответственность.

LEGAL BASIS FOR THE PROTECTION OF THE INSTITUTION OF FAMILY IN THE NATIONAL LEGISLATION OF UZBEKISTAN

Abstract. The article examines the legal basis, legal regulation and features of the protection of the institution of family in the national legislation of Uzbekistan.

Key words: family, institution of family, national legislation, offense, legal liability.

Ma'lumki, oila – muqaddas dargoh, mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug' saodatdir. Har qanday davlat, jamiyatning asosiy bo'g'ini oila hisoblanadi. Shu bois, oila, jamiyat, davlatning muhofazasida bo'lishini taqozo etadi. Zero, jamiyatning a'zolari, ya'ni davlatning fuqarolari va mansabdor shaxslari ham oilalarda dunyoga keladi, shakllanadi, tarbiyalanadi va kamolga yetadi.

Oilani jamiyatning kichik bir parchasiga qiyoslash mumkin. Oila – ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadigan ijtimoiy makon. U jamiyatning muqaddas, asosiysi, tarbiya maskani hamdir.

O'zbekistonda tarixan oila, onalik, otalik, bolalik, farzandlar tarbiyasi va kamol topishiga katta e'tibor berib kelingan. Bu borada, oilada, jamiyatda, davlatda tarbiyaning o'rni o'ta muhim ahamiyat kasb etganligini taniqli mashhur davlat

arboblari xususan, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Boburlar ko'p bora e'tirof etganlar, bu borada, ma'rifatparvar ziyoli Abdulla Avloniy juda o'rinli ta'kidlaganlaridek, "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir".

Mustaqillikka erishilgach, mamlakatimizda oila institutiga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyamizda oila va u bilan bog'liq munosabatlarni konstitutsiyaviy-huquqiy tartibga solish maqsadida quyidagi konstitutsiyaviy-huquqiy normalar ya'ni 63 - 66-moddalarda jami 4ta moddani o'z ichiga olgan "Oila" deb nomlangan 14-bobda qayd etildi[1].

Chunki, oiladagi ma'naviy muhit, sog'lom kayfiyat, barqarorlik jamiyat hayotining asosini ta'minlovchi kuchdir. Har tomonlama sog'lom oila, jamiyatning boyligi va Vatan ravnaqining asosi hisoblanganligi uchun oilaviy qadriyatlarni saqlash, tarbiyaviy salohiyatni mustahkamlash, ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi ham eng dolzarb masalalardan biri bo'ldi.

2023-yil 30-aprelda o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish orqali yanada takomillashtirilib yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizda oila institutini muhofaza qilishga yanada e'tibor kuchaytirildi. Yangilangan Konstitutsiyamizning quyidagi normalarida buni ko'rishimiz mumkin. Yangi tahrirda "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan 14-bob hamda o'z ichiga 76-80-moddalarni qamrab olgan jami 5ta moddada konstitutsiyaviy-huquqiy mustahkamlandi [2].

Ularda oilaga oid eng muhim huquqiy kafolatlar, huquq va majburiyatlar aks etganligini ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsiyamizning 76-moddasidagi quyidagi normalarida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi." davlatimizni bu boradagi muhim siyosatini, g'amxo'rlikni ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsiyaning 77-moddasidagi quyidagi normalarida "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi." ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning

majburiyatlari shuningdek, davlatimiz va jamiyatimizni g'amxo'rligini ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsiyamizning 78-moddasidagi quyidagi normalarida "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi." farzandlarning qonun oldida tengligi, oilaning o'zagi, qo'rg'onlari hisoblanuvchi onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinishi hamda bola huquq va erkinliklari uning rivojlanib kamol topishida davlatning majburiyati va g'amxo'rliqi qayd etilgan.

Konstitutsiyamizning 79-moddasidagi quyidagi normalarida "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi. Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi." davlatimizning yoshlarning barcha huquqlarini ta'minlovchi, tartibga soluvchi hamda qo'llab-quvvatlovchi funksiyalarini ko'rishimiz mumkin.

Konstitutsiyamizning 80-moddasidagi quyidagi normasida "Voyaga yetgan mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar." bevosita voyaga yetgan ya'ni 18 yoshga to'lgan hamda mehnatga layoqatli farzandlarning o'z navbatida o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilish bo'yicha majburiyatlari belgilanganligini ta'kidlashimiz mumkin.

Konstitutsiyamizda umumiy huquqlar, erkinliklar bilan bir qatorda bajarilishi shart bo'lgan burchlar ham belgilangan. Mazkur burchlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik, boshqa shaxslarni huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazish intizomiy, fuqarolik-huquqiy(moddiy), ma'muriy yoki jinoiy huquqbuzarlik deb hisoblanib aybdor shaxslarni tegishli yuridik javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Konstitutsiyamiz normalarini muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan milliy qonunchiligimizda onalik, otalik va bolalik huquqiy muhofaza qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat hamda

Jinoyat protsessual kodekslarida bolalar, voyaga yetmaganlar oila, onalik, bolalik alohida normalarida huquqiy muhofazalangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonunchiligida "ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan Bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llanilishi." yoki oila bilan bog'liq "quyidagi holatlar:

- huquqbuzarlikning kuchli ruhiy hayajon ta'siri ostida yoki og'ir shaxsiy, oilaviy yoxud boshqa sharoitlar yuzaga kelganligi oqibatida sodir etilishi;
- huquqbuzarlikning tahdid yoki majburlov ta'sirida yoxud xizmat yuzasidan, moddiy yoki boshqa jihatdan qaramligi ta'siri ostida sodir etilishi;
- huquqbuzarlikning voyaga yetmagan shaxs tomonidan sodir etilishi;
- huquqbuzarlikning homilador ayol yoki o'n to'rt yoshgacha bo'lgan bolasini yakka o'zi tarbiyalayotgan shaxs tomonidan sodir etilishi" ma'muriy javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga kiritilganligini e'tirof etishimiz kerak.

Shuningdek, agarda aksincha, voyaga yetmagan shaxsni huquqbuzarlikka tortish, jalb qilish esa javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat hisoblanishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida ham oila bilan bog'liq quyidagi holatlar:

- 1) og'ir shaxsiy, oilaviy sharoitlar oqibatida yoki boshqa mushkul ahvolda jinoyat sodir etish;
- 2) majburlash yoki moddiy tomondan, xizmat jihatidan yoxud boshqa jihatdan qaramlik sababli jinoyat sodir etish;
- 3) homilador ayolning jinoyat sodir etishi;
- 4) voyaga yetmaganning jinoyat sodir etishi; javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar jumlasiga kiritilgan.

Aksincha, quyidagi holatlarda jinoyat sodir etish jazoni og'irlashtiruvchi holatlar deb hisoblanadi:

- 1) homiladorligi aybdorga ayon bo'lgan ayolga nisbatan;
- 2) yosh bola, qariya yoki ojiz ahvoldagi shaxsga nisbatan;
- 3) yosh bola yoki ruhiy holatining buzilganligi aybdorga ayon bo'lgan shaxsdan foydalangan holda sodir etish.

Milliy qonunchilikdagi mazkur normalar talablaridan kelib chiqib quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin.

- 1) oila institutini muhofaza qilishga qaratilgan milliy qonunchiligimizni jamiyatimizning barcha a'zolari, mutasaddi tashkilotlar vakillari o'rganishi, bilishi va albatda ularga amal qilishi, talablarini bajarishlari lozim.

2) mamlakatimizda oila institutini muhofaza qilishga qaratilgan umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalarga asoslangan milliy qonunchiligimiz shakllangan hamda davr talablari asosida takomillashib bormoqda.

3) oila institutini muhofaza qilishga qaratilgan talablar, normalarning buzilishi muqarrar ravishda tegishli yuridik javobgarlikka tortilishi hamda jazoning muqarrarligini ta'minlash muhim va zaruriy ahamiyat kasb etishini e'tirof etamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Xalq so'zi» gazetasi, 1992 yil 15 dekabr, 243 (494)-son.
2. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 2025. Lex uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 2025. Lex uz.